



Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-avgust dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 264 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 90 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 174 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 16 840,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 111,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 668,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 141,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 12 511,7 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 660,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 995 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 36 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 959 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 12 443,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 14,7 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 9 064,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 72,8 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Chortoq (191,1 %), Mingbuloq (140,6 %) va Namangan tumanlari (121,9%).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 320 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 313 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 13 352,3 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.